O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT TIBBIYOT
UNIVERSITETI

MINISTRY OF HEALTH OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN
TASHKENT STATE MEDICAL
UNIVERSITY

100109, Toshkent sh., Farobiy ko‘chasi -2 2. Farobiy str. Tashkent 100109

Tel.: (+998-78) 150-78-25, (+998-71) 214-83-11 Fax: (+998-78) 150-78-28
Website: www.tashmeduni.uz, e-mail: info@tashmeduni.uz, tashmeduni@exat.uz

14 iyul 2026 yil. **11608-son**

Toshkent davlat tibbiyot universiteti Ilmiy kengashi yig‘ilishining 12-son BAYONI

Toshkent shahar 2026-yil 27-iyun

Raislik qiluvchi: **Sh.A. Boymuradov** - Toshkent davlat tibbiyot universiteti rektori, professor

Qatnashdilar: Toshkent davlat tibbiyot universiteti Ilmiy kengashi a’zolari (ro‘yxat bo‘yicha)

K U N T A R T I B I:

1. 2025-2026 o‘quv yili bitiruvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasi natijalari hisoboti.

Ma’ruzachi – O‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektor K.N.Xaitov.

2. 2026-yil professor-o‘qituvchilarning yarim yillik faoliyati yakunlari hamda istiqboldagi ustuvor vazifalar.

Ma’ruzachi – Ta’lim sifatini nazorat qilish boshqarmasi boshlig‘i J.B.Sattarov.

3. Universitet ilmiy kengashi faoliyati va ilmiy kengash qarorlarini bajarilishi holati.

Ma’ruzachi - Murojaatlar bilan ishlash nazorat va monitoring boshqarmasi boshlig‘i D.D.Achilov.

4. Professor-o‘qituvchilarni tanlov asosida lavozim va ilmiy unvonlarga saylash.

Ma’ruzachi – Kengash kotibi G.A.Ismailova.

5. Dissertatsiya, monografiya, o‘quv-uslubiy ishlar mavzularini va ilmiy tadqiqot ishlar natijalarini amaliyotga tatbig‘ini tasdiqlash.

Ma’ruzachilar – O‘quv-metodik ta’minot bo‘limi boshlig‘i J.A.Anvarov, Ilmiy -pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i Z.A.Muminova.

6. Turli masalalar.

Kun tartibi ovozga qo‘yildi va bir ovozdan qabul qilindi.

Q A R O R Q I L A D I :

1. Kun tartibining birinchi masalasi “2025-2026 o‘quv yili bitiruvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasi natijalari hisoboti” mavzusi bo‘yicha Toshkent davlat tibbiyot universiteti (keyingi o‘rinlarda – Universitet) O‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektor K.N.Xaitovning ma’lumoti axborot va ijro uchun qabul qilinsin (ma’ruza matnda keltirilgan).

2. Kun tartibining ikkinchi masalasi “2026-yil professor-o‘qituvchilarning yarim yillik faoliyati yakunlari hamda istiqboldagi ustuvor vazifalar” mavzusi bo‘yicha Universitet Ta’lim sifatini nazorat qilish boshqarmasi boshlig‘i J.B.Sattarovning ma’lumoti axborot va ijro uchun qabul qilinsin (ma’ruza matnda keltirilgan).

3. Nufuzli Times Higher Education (THE) Impact Rankings 2026 xalqaro reytingi natijalariga ko‘ra, Toshkent davlat tibbiyot universiteti 601–800-o‘rinlar oralig‘idan munosib joy egallab, dunyoning TOP-1000 universitetlari qatoridan o‘rin olgani, shuningdek, “Good Health and Wellbeing” (SDG 3) yo‘nalishi bo‘yicha dunyoda 81-o‘rinni, “Gender Equality” (SDG 5) yo‘nalishi bo‘yicha dunyoning TOP-100 taligidan joy olgani to‘g‘risida e’tirof etildi.

Kelgusida ta’lim sifati va uni xalqaro standartlar asosida takomillashtirish, ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish, ta’lim dasturlarini xalqaro akkreditatsiyadan muvaffaqiyatli o‘tkazish, barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish hamda THE va boshqa nufuzli xalqaro reytinglarda Universitet munosib o‘rin egallab, yanada yuqori pog‘onalarga olib chiqish maqsadida **kafedralarga kuyidagi ustivor vazifalar amalga oshirilishi bo‘yicha topshiriqlar belgilansin:**

3.1. 2026/2027-o‘quv yili davomida Universitet kafedralarida **xalqaro faoliyatni** takomillashtirish maqsadida kuyidagi vazifalar amalga oshirilishi va jadallashtirilishi **ta’minlansin:**

xorijiy universitetlar bilan hamkorlikda uzoq muddatli strategik hamkorlik aloqalari rivojlanishi va mustahkamlanishi, jumladan xorijiy hamkorlar bilan birgalikda xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarni tashkil etilishi; xorijiy hamkorlar bilan ilmiy va o‘quv mahsulotlarni yaratilishi (darslik, monografiya, patent, maqolalar va dissertatsiya ishlariga xorijlik mutaxassisni ilmiy rahbarlikga jalb etilishi); chet-ellik professor-o‘qituvchilarni shartnoma asosida o‘quv jarayoniga jalb qilishlar sonini oshirilishi va ular tomonidan ma’ruzalar va amaliy mashg‘ulotlar tashkil etilishi.

Ma’sul: Xalqaro hamkorlik bo‘yicha prorektor J.D.Israilov, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor F.L.Azizova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.

Muddat: 2026/2027-o‘quv yili davomida.

3.2. 2026/2027-o‘quv yili davomida Universitet professor-o‘qituvchilari tomonidan kuyidagi vazifalar amalga oshirilishi va jadallashtirilishi **ta’minlansin:**

«Guest lectures» bo‘yicha ishlar yanada rivojlanishini (xorijiy universitetlarda ma’ruzalar, seminarlar, mahorat darslari o‘tkazilishi);

Universitet xodimlarining xorijda malaka oshirishlari va boshqa ilmiy tadbirlarda (konferensiyalar, kongresslar, simpoziumlar) ishtirok etishlari;

xalqaro loyiha va dasturlarda ishtiroq etishlari;

xalqaro reytinglarning doirasida Universitetning akademik reputatsiyasi bo‘yicha so‘rovnomalarida xorijiy hamkorlarni ishtirok etishi va bu jarayon kafedra mudirlari tomonidan nazoratga olinishi;

xalqaro reytinglarning ish beruvchilar fikrini o‘rganish so‘rovnomalarida xorijiy hamkorlarni ishtirok etishi va kafedra mudirlari tomonidan nazoratga olinishi;

Universitet bitiruvchilarining bandligiga alohida e’tibor berilishi, jumladan bakalavriat va magistratura bitiruvchilarining ish bilan ta’minlanishlari (kafedra va boshqa sog‘liqni saqlash muassasalarining vakant joylariga);

yangi ishga qabul qilinayotgan xodimlarning chet tilini bilish bo‘yicha sertifikatini talab qilinishi;

xorijiy universitetlarda“Faxrli professor” unvonini egallashlari;

xalqaro mukofotlarni qo‘lga kiritilishi;

xalqaro ilmiy jamiyat va uyushmalarga a’zo bo‘lishlari;

o‘quv dasturlarini xalqaro akkreditatsiyadan o‘tkazilishi.

Mas’ul: O‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektor K.N.Xaitov, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor F.L.Azizova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.

Muddat: 2026/2027-o‘quv yili davomida.

3.3. Yosh pedagog-kadrlarning pedagogik mahoratini oshirish maqsadida Yosh pedagoglar maktabining faoliyati kuchaytirilsin, shuningdek, ularning nufuzli xorijiy OTMlarda stajirovka o‘tashlari ta’minlansin.

Ma’sul: O‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektor K.N.Xaitov, Xalqaro hamkorlik bo‘yicha prorektor J.D.Israilov, fakultet dekanlari va kafedra mudirlari.

Muddat: 2026/2027-o‘quv yili davomida.

3.4. Kafedra xodimlarining chet tilini bilish bo‘yicha bilimlarini oshirilishi, B2 va C1 darajadagi xorijiy til sertifikatiga ega bo‘lgan professor-o‘qituvchilar ulushini oshirish bo‘yicha ishlar jadallashtirilsin.

Ma’sul: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor F.L.Azizova, fakultet dekanlari va kafedra mudirlari.

Muddat: 2026/2027-o‘quv yili davomida.

3.5. Universitet va kafedralarning ilmiy salohiyatini oshirish maqsadida ishga qabul qilingan yosh kadrlarning mavzularini o‘z vaqtida tasdiqlanishi va bajarilishi bo‘yicha muntazam ravishda monitoringi olib borilsin.

Ma’sul: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor F.L.Azizova, Ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshligi Z.A.Muminova, fakultet dekanlari va kafedra mudirlari.

Muddat: 2026/2027-o‘quv yili davomida.

3.6. Mahalliy va Xalqaro «Scopus», «Web of Sciense»ma’lumotlar bazasidagi va boshqa yuqori impakt faktorga ega jurnallarda nashrlar sonini oshirilishi ta’minlansin, shuningdek, ushbu bazalardagi mualliflarning h-index ko‘rsatkichlariga alohida e’tibor qaratilishi ta’kidlab o‘tilsin.

Ma’sul: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor F.L.Azizova, Ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshligi Z.A.Muminova, fakultet dekanlari va kafedra mudirlari.

Muddat: 2026/2027-o‘quv yili davomida.

3.7. Kafedra xodimlarining mahalliy va xorijiy ilmiy grantlarda faol ishtirok etishlari hamda xo‘jalik shartnomalarni jalb etilishi bo‘yicha ishlar jadallashtirilsin.

Ma’sul: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor F.L.Azizova, Ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i Z.A.Muminova, Ilmiy-innovatsion ishlarni tijoratlashtirish bo‘limi boshlig‘i D.A.Akramov, fakultet dekanlari va kafedra mudirlari.

Muddat: 2026/2027-o‘quv yili davomida.

3.8. Universitetning yosh xodimlari, shuningdek, iqtidorli talabalar va magistr-talabalar Start-app loyihalariga jalb etilishi bo‘yicha ishlar jadallashtirilsin, shuningdek iqtidorli talabalarni saralash, ularni davlat va nomdor stipendiyalarga tayyorlash bo‘yicha ishlar faollashtirilsin.

Ma’sul: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor F.L.Azizova, Ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i Z.A.Muminova, Iqtidorli talabalar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i Z.K.Karimova, fakultet dekanlari va kafedra mudirlari.

Muddat: 2026/2027-o‘quv yili davomida.

3.9. Universitet kafedralarining **2026/2027 o‘quv yiliga tayyorgarligi bo‘yicha o‘quv va o‘quv-uslubiy ishlari doirasida belgilangan kuyidagi vazifalar amalga oshirilishi ta’minlansin:**

kafedrada ta’lim beriladigan fanlar kesimida bakalavriat bosqichi uchun fan dasturlarining “Oilaviy shifokorlarni tayyorlash dasturlari”ga, magistratura va klinik ordinatura bosqichlarida esa tegishli mutaxassisliklarga muvofiq tayyorlanishi va tasdiqlanishi, bunda amaliy mashg‘ulotlar hajmining kamida 50 foizi kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan amaliy ko‘nikmalarni o‘zlashtirish uchun ajratilishi ta’minlansin.

kompetensiyalarga asoslangan amaliy ko‘nikmalarni qadamma-qadam bajarish uchun yo‘riqnomalar va uslubiy qo‘llanma ishlab chiqilishi va tasdiqlanishi;

o‘quv auditoriyalarni mavzuviy ko‘rgazmali materiallar hamda amaliy ko‘nikmalarni bajarish uchun jihozlanishi;

kompetensiyalarga asoslangan amaliy ko‘nikmalarni baholash tizimini tasdiqlanishi;

fan bo‘yicha “O‘quv-uslubiy majmua”ni ishlab chiqilishi va tasdiqlanishi;

fan bo‘yicha “Ma’ruza” matnlari va prezentatsiyalarini tayyorlanishi;

laboratoriya ishlarini o‘tkazish bo‘yicha yo‘riqnoma va uslubiy qo‘llanmalarni tayyorlanishi va tasdiqlanishi;

kafedra shtatini shakllantirilishi, o‘quv yuklamani taqsimlanishi;

2026/2027 o‘quv yiliga “Dars jadvali”ni shakllantirilishi va tasdiqlanishi;

o‘quv jarayonini raqamlashtirish ishlarini amalga oshirilishi, shuningdek, “Elektron jurnal”ni yuritishga tayyorgarlik ko‘rilishi;

kafedralarda o‘qitiladigan fanlarning o‘quv dasturlarini o‘zaro muvofiqlashtirish, mavzularning asossiz takrorlanishini bartaraf etish, fanlararo uzviylik va izchillikni ta’minlash hamda o‘quv mazmunini takomillashtirish maqsadida monotematik fan komissiyalari tashkil etilsin.

Mas’ul: O‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektor K.N.Xaitov, O‘quv-uslubiy departament boshlig‘i F.X.Azizova, fakultet dekanlari,kafedra mudirlari.

Muddat: 2026-yil 15-avgust.

3.10. Toshkent davlat tibbiyot universitetining moddiy-texnik bazasi hamda professor-o‘qituvchilar salohiyatidan kelib chiqib, O‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektor K.N. Xaitov va O‘quv-uslubiy departamenti boshlig‘i F.X. Azizova tomonidan shakllantirilgan 2026/2027-o‘quv yilida xorijiy fuqarolarni o‘qishga qabul qilish bo‘yicha mavjud qabul sig‘imi to‘g‘risidagi taklif tasdiqlansin.

3.11. Qabul komissiyasi mas’ul kotibi S.R. Baymakov va Xalqaro fakultet dekani D.X. Tursunovlar tomonidan ushbu sig‘im asosida xorijiy fuqarolarning qabuli tashkillashtirilsin.

3.12. Toshkent davlat tibbiyot universitetida mavjud qo‘shma ta’lim dasturlari qayta ko‘rib chiqilsin va takomillashtirilsin.

Janubiy Qozog‘iston tibbiyot akademiyasi tomonidan bildirilgan taklif asosida qo‘shma ta’lim dasturini ishlab chiqish bo‘yicha tegishli chora-tadbirlar amalga oshirilsin.

Mas’ullar: O‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektor K.N.Xaitov, Xalqaro fakultet dekani D.X.Tursunov, O‘quv-uslubiy departamnt boshlig‘i F.X.Azizova.

4. Kun tartibining keyingi masalasi “Universitet ilmiy kengashi faoliyati va ilmiy kengash qarorlarini bajarilishi holati” bo‘yicha Murojaatlar bilan ishlash nazorat va monitoring boshqarmasi boshlig‘i D.D.Achilovning ma’lumoti axborot uchun qabul qilinsin (ma’ruza matnda keltirilgan).

5. Kun tartibining keyingi masalasi “Professor-o‘qituvchilarni tanlov asosida lavozim va ilmiy unvonlarga saylash” bo‘yicha ilmiy kotib G.A.Ismailova **professor** ilmiy unvoniga talabgorlar: 14.00.35 - Bolalar xirurgiyasi ixtisosligi bo‘yicha A.A.Raxmatullayev; 14.00.05 - Ichki kasalliklar ixtisosligi bo‘yicha A.A.Eshmurzayeva; 14.00.27 - Xirurgiya ixtisosligi bo‘yicha Q.J.Matmurotov; **dotsent** ilmiy unvoniga: 14.00.17 - Farmakologiya, klinik farmakologiya ixtisosligi bo‘yicha N.A.Yakubova; 14.00.27 - Xirurgiya ixtisosligi bo‘yicha Sh.A.Xudaybergenov; 14.00.21 - Stomatologiya ixtisosligi bo‘yicha A.I.Xasanov;

14.00.02 - Morfologiya ixtisosligi bo‘yicha B.D.Eshonkulova; 14.00.02 - Morfologiya ixtisosligi bo‘yicha G.A.Primova; 14.00.02 - Morfologiya ixtisosligi bo‘yicha L.I. Ibrohimova; 14.00.37 - Anesteziologiya va reanimatologiya ixtisosligi bo‘yicha O.Y.Fayziev; 14.00.16 - Normal va patologik fiziologiya ixtisosligi bo‘yicha R.B.Tadjibayeva; 14.00.27 - Xirurgiya ixtisosligi bo‘yicha S.X.Yigitaliyev; 14.00.29 - Gematologiya va transfuziologiya ixtisosligi bo‘yicha Z.S.Islamova; 14.00.05 - Ichki kasalliklar ixtisosligi bo‘yicha F.I.Xalmetova; 14.00.21 - Stomatologiya ixtisosligi bo‘yicha M.N.Saydaliyev; 14.00.23 - Hamshiralik ishi ixtisosligi bo‘yicha D.M.Toxtayeva; 14.00.21 - Stomatologiya ixtisosligi bo‘yicha N.Sh.Axrorxo‘jayev; 14.00.09 - Pediatriya ixtisosligi bo‘yicha M.A.Xaldarbekova; 14.00.13 - Nevrologiya ixtisosligi bo‘yicha D.A.Alidjanova; 14.00.21 - Stomatologiya ixtisosligi bo‘yicha Sh.Sh.Yusupovlar nomzodlari tomonidan ariza tushganligi haqida ma’lumot berdi va hujjatlari bilan kengash a’zolarini tanishtirdi. So‘ng saylov o‘tkazildi (saylov hay’ati a’zolari va natijalari 1-ilovada keltirilgan).

6. Kun tartibining keyingi masalasi “Dissertatsiya, monografiya, o‘quv-uslubiy ishlar mavzularini va ilmiy-tadqiqot ishlar natijalarini amaliyotga tatbig‘ini tasdiqlash” bo‘yicha O‘quv-metodik ta’minot bo‘limi boshlig‘i J.A.Anvarov va Ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i Z.A.Muminova tasdiqlash uchun taqdim etilgan ilmiy mahsulotlar hamda dissertatsiya mavzulari bilan tanishtirdi (ilovalarda keltirilgan) va tasdiqlash uchun ovozga quyildi.

7. Turli masalalar bo‘yicha O‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektor K.N.Xaitov, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor F.L.Azizova, O‘quv-uslubiy departamenti boshlig‘i F.X.Azizova, Ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i Z.A.Muminova, Ta’lim sifatini nazorat qilish boshqarmasi boshlig‘i J.B.Sattarov so‘zga chiqdilar.

7.1. Xalqaro «Scopus» ma’lumotlar bazasidagi jurnallarda nashrlar sifatini va sonini oshirish maqsadida Universitet professor-o‘qituvchilari uchun seminarlar tashkil etilsin, bunda kompetensiyalarga asoslangan maqola tayyorlash, yozish, barcha bosqichlaridan o‘tish va chop etish to‘grisida kerakli ma’lumotlar berilsin.

Ma’sul: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor F.L.Azizova, Ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i Z.A.Muminova, fakultet dekanlari va kafedra mudirlari.

Muddat: 2026/2027-o‘quv yili davomida.

7.2. Yozgi ta’til davrida talabalar turar joyini yangi o‘quv yiliga tayyorlash va ta’mirlash ishlariga jalb etish maqsadida Universitet talabalaridan iborat “Bunyodkor” yoshlar qurulish otryadi tashkil etilsin hamda buyruq asosida jalb qilingan talabalarga fuqarolik-huquqiy shartnomalar rasmiylashtirilsin.

Mas’ul: Moliya-iqtisodiy ishlar bo‘yicha prorektor N.L.Asqarov, TTJ direktsiyasi direktori S.O‘.Ruzmetov.

Muddat: 2026-yil iyul.

7.3. Gospital terapevtik stomatologiya kafedrasi professori, t.f.d., professor Timur Vladimirovich Melkumyan rahbarligida “Dentinni minimal invaziv plombalash

IJRO.GOV.UZ tizimi orqali ERI bilan tasdiqlangan, Hujjat kodi: JZ44623513

uchun bioaktiv nanosement va innovatsion qo‘llash tizimini yaratish bo‘yicha amaliy tadqiqot” mavzusidagi grant loyihasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Innovatsion rivojlanish agentligining “Maqsadli amaliy” tadqiqot loyihalari tanlovida qatnashish uchun tavsiya etilsin.

7.4. Ichki kasalliklar, nefrologiya va gemodializ kafedrasi 2-bosqich (PhD) tayanch doktoranti Ruziyeva Xadicha Obitdjon qiziga tibbiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun 14.00.05 - Ichki kasalliklar ixtisosligi bo‘yicha «Возможности медикаментозной терапии пациентов с легочной гипертензией, ассоциированной с сохранной хронической сердечной недостаточностью» mavzusidagi bajarilayotgan dissertatsiya ishiga oid ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish uchun sST2 (Soluble ST2) reagenti va sarf materiallari xarid qilinishi ma’qullansin. Mazkur reagent faqat ushbu ilmiy-tadqiqotishida foydalanish maqsadga muvofiq deb hisoblansin. Yuqorida ko‘rsatilgan reagentni O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish uchun zarur ruxsatnomalarni olish yuzasidan vakolatli davlat organlariga murojaat qilinsin.

7.5. Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi yosh olimlarning Respublika hududida ilmiy tadqiqot ishi bo‘yicha loyihalarni amalga oshirish, shuningdek, tajriba almashishni nazarda tutuvchi “Akademik harakatchanlik” dasturi tanlovida e’lon qilingan dasturi bo‘yicha shakllantirilayotgan grantlar tanlovida ishtirok etish uchun 2-son ichki kasalliklar va endokrinologiya kafedrasi 2 bosqich tayanch doktoranti Mahmadullayeva Shaxnoza Sodiqjon qizi tayyorlangan «Tuxumdonlar polikistozi sindromida immunometabolik biometabolik biomarkerlar va melatonin-adipokin disbalansj asosida metabolik xavfni prognozlash algoritmini ishlab chiqish» mavzusidagi grant loyihasi Innovatsion rivojlanish vazirligiga loyihalar tanlovida qatnashish uchun tavsiya etilsin. Ilmiy rahbar qilib t.f.d. D.K.Najmutdinova tayinlansin.

Qaror bir ovozdan qabul qilindi va tasdiqlandi. Ilmiy Kengash o‘z ishini yakunladi.

Rektor **Sh.A. Boymuradov**

Ijrochi: *G.A.Ismailova*
Tel.: +998 97 461 80 41